



UDK: 94(575.1):323.2

*Alisher JALILOV,*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*  
*E-mail: galaosiyo@gmail.com*

*O‘zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.d A.Yermetov taqrizi asosida*

## THE FORMATION OF THE NATIONAL POLITICAL ELITE UNDER THE CONDITIONS OF THE ESTABLISHMENT OF THE SOVIET REGIME IN TURKESTAN

Annotation

This article is devoted to the issues of the formation of the national political elite in the conditions of the establishment of the Soviet regime in Turkestan. It was analyzed that the Bolsheviks did not bring the representatives of the local people closer to the Soviet administration, they were distrustful of their activities, and that the nomenclature was introduced, which was considered the practice of promotion from the bottom to the top in the personnel policy.

**Key words:** October coup, political elite, nomenclature, national policy, proletarian revolution, declaration, totalitarian, soviet, autonomy, party, bolshevik, nationalism, chauvinism.

## ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭЛИТЫ В УСЛОВИЯХ УСТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам формирования национальной политической элиты в условиях установления советской власти в Туркестане. Проанализировано, что большевики не приближали представителей местного населения к советской администрации, относились к их деятельности с недоверием, была введена номенклатура, которая считалась практикой продвижения снизу вверх в кадровой политике.

**Ключевые слова:** Октябрьский переворот, политическая элита, номенклатура, национальная политика, пролетарская революция, декларация, тоталитарный, советский, автономия, партия, большевик, национализм, шовинизм.

## TURKISTONDA SOVET REJIMI O‘RNATILISHI SHAROITIDA MILLIY SIYOSIY ELITANING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqola Turkistonda sovet rejimi o‘rnatilishi sharoitida milliy siyosiy elitaning shakllanishi masalalariga bag‘ishlanadi. Bunda bolsheviklar tomonidan sovet boshqaruviga mahalliy millat vakillarini yaqinlashtirmasdan, ularning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qaralganligi hamda kadrlar siyosatida pastdan yuqoriga rahbar lavozimiga ko‘tarish amaliyoti hisoblangan nomenklaturani joriy qilinganligi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Oktyabr to‘ntarishi, siyosiy elita, nomenklatura, milliy siyosat, proletar inqilob, deklaratsiya, totalitar, sovet, avtonomiya, muxtoriyat, partiya, bolshevik, millatchilik, shovinizm.

**Kirish.** Oktyabr to‘ntarishidan keyin sovet hokimiyati sobiq mustamlaka o‘lkalarni Rossiyaga to‘la bo‘ysundirish uchun Markazning har qanday qaror va dekretlarini tatbiq qilish va bajarilishini ta‘minlash siyosatini yuritdi. Bu esa o‘z navbatida mustamlakachilik tuzumi o‘zgarimasdan davom etishini anglatar edi. Shu maqsadda bolsheviklar mazkur o‘lkalarda o‘zining siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida quyidagi qat‘iy talabni ilgari surdilar: “Rossiyadan erkinlik va istiqloq tilagida bo‘lgan millatlar “sotsializm” dasturini qabul qilishi hamda har mamlakat boshqaruvini ishchi-dehqon vakillari sovetlari degan hukumatga topshirishlari shart”[1] qilib qo‘yildi. Ana shunday og‘ir sharoitda Turkistonda o‘ziga xos siyosiy elita shakllana boshladi.

Bolsheviklar tomonidan millatlarni Rossiya ta‘sirida saqlash uchun to‘ntarishning dastlabki kunlaridanoq bu haqda huquqiy hujjat, ya‘ni “Rossiya xalqlarining huquqlari deklaratsiyasi” e‘lon qilindi. Bunda Rossiya o‘lkasidagi millatlar masalasida quyidagilar belgilandi: 1. Rossiya xalqlarining tengligi va suverenligi. 2. Rossiya xalqlarining ajralib chiqish va mustaqil davlatni barpo etishgacha bo‘lgan o‘z taqdirini o‘zi erkin belgilash huquqi. 3. Har qanday milliy, milliy-diniy imtiyozlar hamda cheklanishlarning man etilishi belgilandi[2]. Ushbu deklaratsiyaning nazariy asosida milliy zulm va milliy tengsizlikka barham berish, mustamlaka va qaram mamlakatlarning ezilgan xalqlarini imperializm zulmidan ozod qilish, barcha kishilarga, ular qaysi irq va qaysi

millatga mansub bo‘lishlaridan qat‘i nazar, chinakam ozodlik va tenglik berish, barcha xalqlar o‘rtasida do‘stona hamkorlik hamda o‘zaro yordamni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish xususida balandparvozlik bilan yozilgan.

Dastlab bolsheviklar tomonidan sovet boshqaruviga mahalliy millat vakillarini yaqinlashtirmasdan, ularning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qaraldi. Chunki, Markazdan yuborilgan kadrlar davlat apparatining asosiy bo‘g‘inlarini egallab, mahalliy xodimlarni boshqaruvdan chetga surib qo‘ygan edi. Bolsheviklar boshqaruvda Turkiston general-gubernatori Kuropatkinning “Mahalliy kishilarga to‘la huquq berib bo‘lmaydi”[3] degan ko‘rsatmasiga asoslanib ish ko‘rdilar.

Sovet hokimiyati Turkiston Muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, 1918 yil 20 aprel kuni Toshkentda Turkiston Sovetlarining V syezdi ochildi. Nihoyat, 30 aprel kuni syezd RSFSR tarkibida Turkiston Sovet Avtonom Respublikasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi va “Turkiston Sovet Respublikasi to‘g‘risida Nizom”ni tasdiqladi. 1918 yilning 30 aprelda tashkil topgan Turkiston ASSR hukumati tarkibida Milliy ishlar bo‘yicha xalq komissarligi tuzildi va unga Toshxo‘ja Ashurxo‘jaev komissar etib tayinlandi[4]. Shu yilning 18 iyunida Milliy ishlar xalq komissarligi Markaziy Komitetining 10 kishidan iborat quyidagi a‘zolari tasdiqlandi: 1. Yusupov; 2. Bulyaboev; 3. Nagaybekov; 4. Sharofiddinov; 5. Axunov; 6. Jo‘raboiev; 7.

Ostonboyev; 8. Klevleev; 9. Ibragimov; 10. Kosenko [5]. Shuningdek, ushbu sanada Milliy ishlar xalq komissarligining viloyatlar va uездlarda bo'limlari tuzildi[6]. 1919-yilda Turkiston komissiyasi huzurida o'zbek, qirg'iz, turkman, ukrain va boshqalardan iborat 10 ta milliy bo'lim o'z faoliyatini boshladi[7]. Shu bilan birgalikda 1919 yil mart oyida II O'lka partiya konferensiyasida RKP(b) ning milliy ishlar bo'yicha maxsus byurosi tuzildi. Milliy ishlar bo'yicha byuro partiya komitetlarining siyosiy vazifalarini bajaruvchi yordamchi tashkilot sifatida faoliyat yuritdi. Bunday holatdagi boshqaruv tizimi nafaqat Turkistonda, balki bolsheviklar rahbarligida boshqa milliy respublikalarda ham joriy etilgan. Turkiston ASSR milliy ishlar byurosining yevropalik aholi uchun kichik milliy bo'limlari Eron-Ozarbayjon, chex, serb, ukrain, yahudiy, arman, polyak, mahalliy-yahudiy, Kavkaz-Ozarbayjon va boshqalardan iborat bo'lgan[8]. Shu asnoda ular mintaqa kamchilikni tashkil etgan yevropalik aholi va ko'pchilik bo'lgan tub xalqlarning milliy siyosiy yo'nalishini belgilab berdi.

Turkiston Sovetlarining VI syezdida (1918 yil 5–14 oktyabr) RSFSR Konstitutsiyasi asosida “Turkiston ASSR Konstitutsiyasi” qabul qilindi. Konstitutsiyada mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishlari, temir yo'l, bo'xona, savdo, sanoat va moliya masalalari Federal hukumat ixtiyorida qoldirilganligi alohida ta'kidlandi, ya'ni davlat boshqaruvining barcha tarmoqlari qonuniy ravishda Markazga bo'ysundirildi. Bu “avtonomiya” tabiatan milliy muxtoriyat bo'lmay, balki hududiy bir avtonomiya edi. Buning ustiga, ushbu “muxtoriyat” samalaridan birinchi galda o'lkadagi evropalik aholining asosan proletar qismi foydalandi[9].

Bolsheviklarning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosatining asosiy tamoyillaridan biri, bu mahalliy millat vakillariga ishonmaganligidir. Shuning uchun ham Turkistonda 1917 yil noyabrda tuzilgan Xalq Komissarlar soveti tarkibi faqat evropalik millat vakillaridan iborat bo'lib, unga birorta ham mahalliy millat vakillari kiritilmagan edi. Bu hol 1919 yil 19 yanvardagi harbiy qo'mondon K.Osipov isyonigacha davom etdi. Faqat 1919 yil fevraldan mahalliy millat vakillari davlat boshqaruv ishlariga jalb etildi. Nizomiddiy Xo'jaev, Turar Risqulov, Nazir To'raqulov va boshqalar o'lkada mas'ul lavozimlarda ishlay boshladi. Biroq davlat organlarida, ayniqsa, markaziy boshqaruvda mahalliy millat vakillari etarli emas edi. Natijada, Turkiston siyosiy elitasining katta qismini, baribir, yevropaliklar tashkil etib qolaverdi. Shuningdek, Turkistonda partiya va davlat rahbarlari faoliyati 1919 yil oktyabrda tashkil etilgan Turkiston komissiyasi, 1920 yil iyulda tashkil etilgan Turkiston byurosi kabi Markazdan jo'natilgan favqulodda vakolatga ega bo'lgan tashkilotlar nazorati ostida bo'ldi[10].

1919-yil sentyabrda Turkiston Kommunistik partiya-sining favqulodda chaqirilgan IV syezdida Turar Risqulov sovet milliy siyosatining Turkistonda yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida keskin fikr bildirgan edi: “Turkistondagi proletar inqilob ajoyib jihatlari bilan birga katta xatolarga ham yo'l qo'ydi. Bunga asosiy inqilobchi – namoyandalarning mahalliy aholi turmushi va shart-sharoitlari bilan tanish bo'lmaganligi sabab edi. Shu bois olib borilgan siyosatning normal xarakterga ega emasligi, keyinchalik qayd etilgan hatolarga sabab bo'ldi. Sovet hokimiyatining inqilobga qarshi bo'lgan kuchlar bilan kurashishi uning ushbu hududda sovet tuzumining qurilishiga katta zarar yetkazdi. Qo'qon muxtoriyatining barbod qilinishi hamda Buxorodagi voqealar musulmonlar uchun sovet hukumatining salbiy jihatlari fosh qildi. Ushbu voqealarda siyosiy rahbarlar bir qator tuzatib bo'lmaz xatolarga yo'l qo'yishdi. Natijada ular tinch yashayotgan musulmon aholiga fojialar keltirdi, yangi frontlar, masalan, Farg'ona frontining paydo bo'lishiga olib keldi” [11].

Ta'kidlash joizki, Turkiston o'lkasi boshqaruvining dastlabki yillarida Markazdan kelgan rahbarlar mahalliy

kadrlarga ishonmaslik siyosatini yuritib keldilar. Yerli aholi, uning ko'zga ko'ringan namoyandalari, ayniqsa, milliy ziyolilarga xusumat bilan qaraldi. Tub yerlik xodimlar, jumladan, yuqori lavozimlardagi arboblarning faoliyati qattiq nazorat qilindi. Sovet davlati kadrlar siyosatida pastdan yuqoriga rahbar lavozimiga ko'tarish amaliyoti hisoblangan nomenklaturani joriy qildi. Aynan siyosiy elitaning shakllanishida nomenklatura siyosati asosiy o'rin egalladi. Nomenklatura bu asosiy lavozim va mansablar hamda ularga nomzodlar ro'yxati bo'lib, u 1919 yildan boshlab tuzila boshlangan. Shu yili RKP(b) MK da kommunist kadrlarni hisobga oluvchi va taqsimlovchi maxsus bo'lim tashkil etilgan.

Bu bo'lim sovet hukumati va kommunistik partiyaning qarorlarini amalga oshiruvchi kommunistlar ro'yxatini tuzish va ularni joylarga ishga jo'natish bilan shug'ullangan. Natijada, partiya apparatida kadrlarni saylash tamoyili o'rniga kadrlarni tayinlash va bir joydan ikkinchi joyga ishga o'tkazish mexanizmi vujudga keldi. Bu mexanizm esa sovet jamiyatida kommunistik partiya siyosatini amalga oshirish quroli sifatida keng qo'llanildi. 1919 yil 12 fevralda RSFSR Milliy ishlar xalq komissari I.V. Stalin Turkiston sovetlariga va partiya tashkilotlariga murojaat qilib, mahalliy millat vakillarini davlat qurilishiga tortish zarurligini ko'rsatib o'tdi[12]. Shu paytgacha Turkiston sovet hukumati tarkibiga birorta mahalliy millat vakillari kiritilmagan bo'lib, bu holat Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin tubjoy aholidan milliy rahbar xodimlar olinmaganligini anglatadi.

Nomenklatura nazariyotchisi va yaratuvchisi RKP (b) MK Bosh kotibi I.V.Stalin bo'lgan. RKP (b) ning XII syezdi (1923 yil aprel) da stalin barcha boshqaruv bo'g'inlarida kommunistlarni kiritish to'g'risidagi fikrni ilgari surdi. Bunda sovet mafkurasini mahalliy aholi ongiga singdirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bolsheviklar ish yuritish tili va kadrlar masalasidagi taktikada biroz o'zgarish yasadilar. Bunda mahalliy millat vakillaridan bolsheviklarni tayyorlash va ular qo'li bilan mamlakatni boshqarish nazarda tutilgan edi. Shuningdek, syezd qarorida milliy respublikalarda marksistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi to'garaklarni tashkil etish, markaziy komitet oldida mahalliy ishchilardan partiyaning instruktorlik bo'limini tuzish, partiyaning tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, joylardagi sovet mafkurasiga xizmat qiluvchi universitetlarni ochish, har bir xalqning ona tilida adabiyotlar chop ettirish va ish yuritishni mahalliy tillarda olib borish keltirib o'tilgan[13].

Mazkur syezdda I.V.Stalin tomonidan so'zlangan “Partiya va davlat qurilishida milliy momentlar” mavzusidagi tezislarda belgilab qo'yilgan milliy chekka o'lkalar aholisini kamситishga, tahqirlashga, milliy tili, dini, urf-odat, qadriyat-lari, milliy o'zligidan mahrum qilishga asoslangan aldanchi “haqiqiy milliy tengsizlikni yo'q qilish – milliy zulm va mustamlaka qulligining barcha qoldiqlariga g'ayrat va sabot bilan kurashish”[14] davri boshlanganligi qayd etilgan.

RKP(b) XII syezdi sovet idoralarini milliy lashtirish hamda madaniy qurilish masalalarini partiya milliy siyosatining asosiy masalalari qatoriga kiritdi. 1923 yil 8 iyunda Butunittifoq MIK Prezidiumi tomonidan qabul qilingan 50-raqamli qarorga ko'ra Sovet Ittifoqi tarkibidagi milliy respublikalarda davlat boshqaruvini rus va mahalliy tillarda olib borishga ruxsat berildi[15]. Ushbu qarorning nazariy asosida keltirilishicha, proletariat hokimiyati rus dehqonlariga qadrdon bo'lganidek, milliy dehqonlar uchun ham qadrdon bo'lishi zarur edi. Milliy dehqonlarga ham sovet hokimiyati qadrdon bo'lishi uchun ularning maktablari, sud va boshqa hokimiyat organlari mahalliy aholi tilida olib borilishi lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, davlat idoralarida mahalliy aholining fe'lini, odatlarini, turmushini yaxshi bilgan milliy kadrlarni tayyorlash zarurligi e'tirof qilingan[16].

1923 yil 8 noyabrda RKP (b) MK kadrlarni tanlash va mas'ul lavozimlarga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilindi[17]. Natijada, Markaziy Komitet qarori bilan turli sohalar bo'yicha nomenklatura ro'yxatlari tasdiqlandi. Nomenklaturaning 1-ro'yxatiga SSSR XKS va SSSR MIK, BMK rahbariyati, prezidiumi va kollegiyalari a'zolari, VVSSPS hamda trest, sindikatlar rahbarlari, VSNX boshqarmasi boshliqlari kiritilib, ularni RKP (b) MK (keyinchalik, VKP (b) MK) maxsus komissiyasi tasdiqlangan. 2-ro'yxatga yuqoridagi asosiy lavozimlar o'rinbosarlari, 3-ro'yxatga esa respublika va joylardagi rahbar kadrlar kiritilgan. Nomenklaturaga kirgan nomzodlarning partiya yo'li va siyosatiga sodiqligi asosiy mezon bo'lib, bu holat xavfsizlik xizmati organlari (GPU va OGPU) xodimlari tomonidan tekshirilib turilgan[18].

**Xulosa va takliflar.** Kadrlar siyosatining nazariy asosida davlat boshqaruvida sovet mafkurasiga xizmat qiladigan milliy kommunistlarni tayyorlash belgilangan. Biroq rusiyazon rahbarlarning mahalliy kadrlarga ishonchsizligi hamda ularning erkin faoliyat yuritishiga qarshiliklari davom etdi. Kadrlar siyosati tizimida muammolar asosan markaziy muassasalarda saqlanib qolib, viloyat va tumanlarda ma'lum ishlar amalga oshirildi. Turkiston ASSR da olib borilgan kadrlar siyosati bilan bog'liq dekret va qarorlarning bajarilishi

ustidan yetarlicha nazorat qilinmadi. Yevropa millatiga mansub rahbar xodimlar mahalliy kadrlarni tayyorlash hamda ularning boshqaruvga jalb qilinishlarini istamadilar. Shu tufayli davlat boshqaruvi va mahalliy idoralarda yerli xodimlarni ishga joylashtirish tizimidagi muammolar to'liq hal qilinmadi. Bunday sharoitda siyosiy elitaning milliy boshqaruv olib borgan harakatlari o'zining to'laqonli samarasini bermadi.

Kadrlar siyosatining nazariy konseptual asoslari bolsheviklar tomonidan qabul qilingan bir qator tarixiy hujjatlar, shuningdek, partiya syezdlari, qurultoylar, konferensiyalarning hamda turli idoralarning qaror va ko'rsatmalari, yo'riqnomalarida keltirib o'tilgan.

Muassasalarda ish yuritishning o'zbek tilida olib borilishi va boshqaruvda mahalliy kadrlarning tayyorlanishi xususidagi qarorlar turkistonliklar tomonidan xayrixohlik va qo'llab-quvvatlash bilan qarshi olingan. Biroq bolsheviklar tomonidan mahalliy millat vakillaridan kadrlar tayyorlash siyosatining mazmun-mohiyati boshqacha talqin qilindi. Kadrlar tayyorlash jarayonida hukumat doiralarning ishchi va dehqon ommasiga yaqinlashtirilishiga zo'r berilib, boshqaruvda aholi soniga yetarlicha tarzda milliy kadrlar tayyorlash e'tibordan chetda qoldirilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Bolsheviklar va biz // "Hurriyat". 1918-yil 9-yanvar. 65-son.
2. Ленин В.И. О Средней Азии и Казахстане. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982, – С.454.
3. Шамсутдинов Р. Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.14.
4. O'z MA, R-36-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 160-varaq.
5. O'z MA, R-36-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 136-varaq.
6. O'z MA, R-36-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 132-varaq.
7. Ата-Мирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – С.163.
8. Саипова К. Д. Социально-экономическое и политическое положение европейской части национальных меньшинств на территории ТАССР // Вестник развития науки и образования. – Москва, 2013. № 1. – С.23-24.
9. Ерметов А. Туркстонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917–1924 йиллар). – Тошкент: Abu matbuot- konsalt, 2007. – Б.22.
10. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: "O'zbekiston", 2019. – Б.421.
11. Мусбюро Р.К.П.(б) в Туркестане. 2 из Туркестанские Краевые конференции Р.К.П. 1919–1920г.г. – Т.:Туркестанское Государственное Издательство, 1922. – С 57.
12. Ўзбекистон ССР тарихи. Улуғ октябрь социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917–1937 йиллар). III том. – Т.:Фан, 1971. – Б. 193.
13. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Том 3. 1922 – 1925. – Москва: Издательство политической литературы, 1984. – С.88.
14. Сталин И. Асарлар. Том 5. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1949. – Б. 208-222.
15. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918 – 1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. – Москва.: РОССПЭН, 2005. – С. 117-118.
16. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918 – 1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. – Москва.: РОССПЭН, 2005. – С. 117-118.
17. История России. XX век. – Москва: Издательство АСТ, 2000. – С.244.
18. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: "O'zbekiston", 2019. – Б.419-420.



Zuxra KABULOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: zuxrakabulova@gmail.com

Guliston davlat universiteti dotsenti, t.f.n. O'.Erbo'tayeva taqrizi asosida

### THE EMERGENCE OF SPECIAL EDUCATION IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF BLIND CHILDREN)

Annotation

This article uses the example of teaching blind children to study the formation of special education, in particular the history of special education in Uzbekistan. Information is presented about the purpose, content, objectives, methods and features of teaching blind children. The initial organization of education for the blind, methods of teaching, developmental programs and means are reflected. The process of historical development of education for the blind, the work of teachers and educators who showed dedication in solving their problems are also explained.

**Key words:** Special education, teaching blind children, children's pedagogy, teacher, uncial, Braille, V. Gayuy, L.I. Novoselova, Yu. Okhunboboev.

### ПОЯВЛЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (В СЛУЧАЕ СЛЕПЫХ ДЕТЕЙ)

Аннотация

В данной статье на примере обучения слепых детей изучено становление специального образования, в частности история специального образования в Узбекистане. Представлена информация о цели, содержании, задачах, методах и особенностях обучения слепых детей. Отражены первоначальная организация образования слепых, методы его обучения, развивающие программы и средства. Также объяснен процесс исторического развития образования слепых, работа педагогов и педагогов, проявивших самоотверженность в решении своих проблем.

**Ключевые слова:** Специальное образование, обучение слепых детей, детская педагогика, педагог, унциал, шрифт Брайля, В. Гаюи, Л.И. Новоселова, Ю. Охунбобоев.

### O'ZBEKISTONDA MAXSUS TA'LIMNING VUJUDGA KELISHI (KO'ZI OJIZ BOLALAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada maxsus ta'limning vujudga kelishi xususan, O'zbekistonda maxsus ta'lim tarixi ko'zi ojiz bolalar ta'limi misolida tadqiq etildi. Ko'zi ojiz bolalar ta'lim- tarbiyasi maqsadi, mazmuni, vazifalari, usullari va xususiyatlari uni tashkil etish bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Ko'zi ojizlar ta'limining dastlabki tashkil etilishi, uni o'qitish usullari rivojlanish dastur va vositalari aks ettirilgan. Shuningdek, ko'zi ojizlar ta'lim-tarbiyasi tarixiy rivojlanishi jarayoni, muammolari ularning bartafar etishda fidoyilik ko'rsatgan tiflopedagog va pedagoglar amalga oshirgan ishlari talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** Maxsus ta'lim, ko'zi ojiz bolalar ta'limi, tiflopedagogika, pedagog, unsial, brayl yozuvi, V.Gayui, L.I. Novoselova, Y.Oxunboboev.

**Kirish.** Hayotda yashar ekanmiz, borliq, atrof-muhit bilan munosabatda bo'lamiz, turli insonlar bilan muloqotga kirishmiz, o'ziga xos hayotiy muammo va kamchiliklarga duch kelganda ba'zan nimalardandir norozi holda noliymiz, ammo tabiatning go'zal ne'matlarini to'liq ko'rib undan bahramand bo'lib yashashning o'zi ham baxt ekanligini goho unutib qo'yamiz. Shunday insonlar borki, ular borliqni ko'rmasda qalban his qilib, kuchli tafakkur hamda tasavvur orqali borliqdagi narsalarni anglashga harakat qiladi. Bunday imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ustozlar shogirdlarini orzular sari intilib, ertangi yaxshi kunlarga ishonishga, dunyoni tafakkur va tasavvur bilan anglashga ko'mak beruvchi fidoyilar deb atash mumkin.

BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "imkoniyati cheklangan" yoki "nogironligi bo'lgan shaxslar" foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq mafaatlari ifodalashga xizmat qiladi[1].

Tadqiqotimiz aynan shunday, imkoniyati cheklangan ko'zi ojiz bolalar ta'limi tarixi haqida, bu borada so'z borar ekan bugungi kunda, imkoniyati cheklangan insonlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy moslashuvi va

reabilitatsiyasiga ko'mak berishga qaratilgan davlat va jamoat tuzilmalari faoliyat yuritmoqda. Nogironligi mavjud insonlar uchun maxsus maktab-internatlari tashkil etilgan.

Ulardan 12 tasida 3 ming nafardan ortiq ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar tahsil oladi. Bunday maktablarning faoliyat yuritishi nogironlarning tarbiyasi, umumta'lim va kasb-hunarga o'rgatish, keyinchalik esa ularning ishga joylashishiga ko'mak beradi.

Aynan, O'zbekistonda ta'lim tizimi negizida maxsus ta'limning vujudga kelishi va ko'zi ojiz bolalar ta'limi-tarbiyasi maqsadi, mazmuni, vazifalari, xususiyatlari uni rivojlanib, takomillashib borishi jarayonlarini tadqiq etish barobarida bu muammoning kam o'rganilganligi hamda shu tizim vakili sifatida ko'zi ojizlar ta'limida yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar bilan birgalikda yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Shuningdek jahon miqyosida ko'zi ojizlar ta'limi imkoniyat va ilg'or, innovatsion yangiliklarini maqbul elementlarini o'rganish masalalarini ham nazarda tutganmiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tiflopedagogika fani Yevropa davlatlarida, xususan, Fransiyada XVII asrda rivojlanadi. Bu fanning asoschisi fransuz pedagogi V.Gayui bo'lib, u Parij shahrida 1784 yilda hukumat yoki biror xayriya tashkilotini yordamisiz o'z shaxsiy mablag'iga uyida ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab tashkil qiladi. U maxsus alifbo



ishlab chiqib, harflari bir unsiya uzunlikda bo'lganligi uchun "Unsiyal" deb ataladi. Unsiyal qalin zich qog'ozga bo'rttirib, tushirilgan bo'lib, ko'zi oqizlarni o'qishga o'rgatish va ular uchun kitob chop etish imkonini berdi[2].

1920 yil iyun oyida PSFSR xalq maorifi komissariyati bolalar orasida nuqsonlikka qarshi kurashga bag'ishlangan I Butunrossiya syezdini chaqirdi. Syezda bolalar o'rtasida uchraydigan nuqsonlikka qarshi kurash, maxsus muassasalar ochish, mutaxassislar tayyorlash masalalariga tegishli qarorlar qabul qilindi. Natijada, tashabbuskor L.I. Novoselovning harakatlari bilan 1920 yilda Toshkentda 15 nafar o'quvchisi bo'lgan ko'r va karlar muassasasi ochilib, keyinchalik u nuqsonli bolalar Toshkent maktabiga aylantirildi.

Ko'zi oqiz bolalarning maktab-internatlar 1920 yil turli kasallik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun dastlabki maktab ochilgan edi. Asli harbiy vrach hisoblangan Kalman Xorvat mazkur maktab nashkilotchilaridan biri bo'lib, shu maktabning birinchi mudiri hisoblanadi.

U bilan mehnat qilgan L.I. Novoselova, A.A. Kozlova, A. Bekchurova, V.V. Gulina, X. Kamoliddinova o'z ishining ustasi va fidoiysi edilar[3].

1929 yili fidoiy rahbar Yo'ldosh Oxunboboyevning bevosita ishtirokida maktabdagi ko'zi oqiz ENB bolalarni ajratib o'qitish tashkil qilindi. Ko'zi oqiz bolalar internat-maktabining tarixi shu yillardan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

1930-1931 o'quv yillarida maktabga mahalliy millatga mansub bolalar qabul qilindi. Unda ritmika va ashulla darsi joriy etilib, unga N.I. Davidova rahbarlik qilgan. Shu o'quv yilida o'zbek sinifi tashkil etilib, unda A. Bekchurova dars bera boshladi. Musiqiy ta'lim majburiy hisoblanar edi. Shuningdek, mehnat ta'limi hammavjud bo'lib, ritkotaj-to'qish va qilcho'tka ustaxonalariga L.I. Novoselova va I.V. Melnikovalar boshchilik qilgan.

Urush yillarida Rossiya, Belorussiya, Ukrainadan evakuatsiya qilingan bolalar hisobiga maktab o'quvchilari soni keskin darajada ortib, 200 nafarga yetdi.

1959 yili maktab o'quvchilar soni 160 nafar bo'lgan bo'lsa, 1968-1969 o'quv yilida 280 nafarga yetdi. 1970 yilda o'quv binosiyotoxona, oshxona, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarini o'z ichiga olgan zamonaviy bino qad rostlandi. Bu o'quv dargohini rivojlanishiga D.A. Muxiddinov, T. Ahmedova, R. Sh. Shomaxmudova, M.N. Xo'jayeva, A.M. Mannonov, S.A. Gelman, P.I. Borisov, P.A. Solobodiryev, V.S. Sinovkina, A.F. O'rmonova, A.B. Samatova va boshqa pedagoglarning o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Manbalar guvohlik berishicha, maxsus ta'lim va pedagogika sohasi tarixiga nazar tashlasak, O'zbekiston hududida 1920 yilga qadar ko'zga ko'rinarli bir ijobiy ish qilinmagan. Shu nuqtai nazardan qararasak bu davrda O'rta Osiyo respublikalarida bu borada olib borilgan ishlar va bu sohada faoliyat olib borgan shaxslar bevosita bizning hududimizda maxsus ta'lim rivoji uchun o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsata olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bu davrda Rossiya hududida nuqsonlilar ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi xususiy mazmundagi sinflar hamda xayriya jamiyatlari bo'lganligi ma'lum. [4].

1920 yillarda rivojlana boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ko'rlar, karlar, aqli zaiflar, nutqida nuqsonli bor bolalar uchun maxsus, alohida maktablar ochila boshlandi.

Urushdan keyingi davrdagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublika maorif vazirligi "Kar, soqov va ko'r bolalarning umumiy ta'limini ta'minlash chorolari to'g'risi" da qaror qabul qilinganligi munosabati bilan bu toifa nuqsonlar uchun, shuningdek, katta yoshdagi bunday nuqsonli bolalar uchun maxsus maktab-internatlar soni ancha kengaydi. Agar 1960-1961 o'quv yilida O'zbekistonda 20 ta maxsus

maktablar bo'lsa, 1973-1974 o'quv yilida ularning soni 43 taga yetdi, tarbiyalanuvchilar soni 9000 dan ortib ketdi.

O'zbekistonda maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash masalasi 1967 yilda O'rta Osiyo birinchi bo'lib boshlangan. Bunda dastlab, Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida, hozirda esa u mustaqil bu mutaxassislarni tayyorlamoqda. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, 1920 yillardan O'zbekistonda ko'zi oqizlar, sust eshituvchilar, aqli zaiflar va boshqa nuqsonlilarga sifat jihatdan yangi ijtimoiy tarbiya tizimi tashkil etilganligini anglash mumkin.

Ko'zi oqizlar maktabida umumta'lim maktablarining Brayl sistemasi bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar ishlatiladi. Ko'zi xira ko'radigan bolalar uchun yirik harflar bilan nashr etilgan darsliklar asosida faoliyat yuritiladi va maxsus chiziqli daftarlar ishlatiladi.

Ko'zi oqiz bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatda bolalar 12 yil ichida 8 yillik umumiy ta'lim maktabi dasturini o'zlashtiradilar. So'ngra kechki maxsus maktablarda o'qishni davom ettirishlari mumkin bo'lgan.

**Tahsil va natijalar.** Tiflopedagogikaning eng asosiy vazifasi ko'zi oqiz bolalardagi to'laqonli bo'lmagan ko'rish funksiyalaridan foydalanish va ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish va ko'rish darajasini pasayib ketishini oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratib berish, ruhiy va jismoniy nuqsonlarning oldini olish uchun maxsus yo'naltirilgan, sog'liqni tiklashga qaratilgan pedagogik ishlarni olib borishdan iboratdir.

Avval Yevropa va AQSHda ko'zi oqizlarni o'qishga va hunarga o'rgatish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan Rossiyaga u irqali Sharqqa tamon yo'nala boshladi [5].

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida dastlab XIX asrning 70-yillarida tizimli ravishda ko'zi oqiz bolalarni o'qitishga e'tibor qaratilgan. Bu amaliy ishlarda ham fransuz tiflopedagogi Valentin Gayuining faolligi natijasida 1807 yil Peterburg shahrida ko'zi oqiz bolalar uchun maktab ochiladi.

Rossiya imperiyasi 1897 yildagi aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga asosan Rossiyadagi ko'zi oqizlar miqdori va tarkibi haqidagi dalillarga tayanadigan bo'lsak, O'rta Osiyoda ko'zi oqizlik ko'p tarqalgan, chunki Kaspiy orti viloyatlarida 100 ming kishiga 306 nafar ko'zi oqiz to'g'ri keladi. Bu esa, Turkiston general-gubernatorligining boshqa viloyatlarida (100000-67, 100000-77 nafargacha yetganini bu butun general-gubernatorlikni olib qaraganda 100000-87-137 nafarni tashkil qilgan. O'rta Osiyoda ko'zi oqizlik ayollarga nisbatan erkaklarda ko'p tarqalgan bo'lib, 26 ta tuman va 6 ta viloyatni o'z ichiga olgan[6].

Ko'zi oqizlar ta'lim-tarbiyasi borasida Toshkentdagi Yo'ldosh Oxunboboyev nomli ko'zi oqizlar maktab-internati qoshidagi maktabgacha yoshdagi ko'zi oqiz bolalar tarbiya guruhiham mavjud bo'lgan. Ushbu tarbiya guruhi 1973-1974 o'quv yilida o'z faoliyatini boshlagan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini tamomlagan ko'zi oqiz bolalar o'rta-maxsus ta'limni olishlari uchun ko'zi oqiz bolalar maxsus maktab-internatlarida o'qiy boshlaydilar. Ko'zi oqiz bolalar maxsus maktab-internatlarida ta'lim 3 bosqichda amalga oshiriladi:

Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar

Asosiy va to'liqsiz ta'lim 5-9 sinflar

To'liqsiz o'rta ta'limning davomi sifatida 5-9 sinf o'quv dasturini maxsus tasdiqlangan, kengaytirilgan, tasavvur hisol qilishda qiyin bo'lgan fan va mavzularni chuqur o'zlashtiradi.

Internat maktabning tashkil topish yillari juda og'ir yillar edi. Maktab tashkilotchilari bolalarni qabul qilish haqida e'lon berar va ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishtarini Toshkentdan to Krosnovagacha bo'lgan masofada olib borishga to'g'ri kelgan.

**Xulosa va takliflar.** O'rganilgan manbalarga tayanib shuni aytilish mumkin, O'zbekiston talim tizimi negizida maxsus ta'limning vujudga keldi. Bu boradagi faoliyatning boshlanishi turli manbalarda turlicha berilganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, ko'zi ojizlar uchun maxsus maktablar dastlab Fransiyada, so'ngra Germaniya, Avstriya, Angliya, Amerika kabi davlatlarda faoliyat yuritgan. Rossiyada bunday maktab Peterburg shahrida 1807 yilda tashkil qilingan bo'lsa, O'zbekistonda esa 1922 yil Toshkentda ochilgan deb ta'kidlanadi.[7].

Yana bir ma'lumotda, ko'zi ojiz bolalarning maktab-internatlar 1920 yil turli kasallik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun dastlabki maktab ochilganligi hamda asli harbiy vrach hisoblangan Kalman Xorvat mazkur maktab tashkilotchilaridan biri bo'lib, shu maktabning birinchi mudiri hisoblanadi. U bilan mehnat qilgan L.I.Novoselova, A.A.Kozlova, A.Bekchurova, V.V.Gulina, X.Kamoliddinova-lar o'z ishining ustasi va fidoiysi edilar deyilgan[8].

Eng ko'p uchraydigan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, maxsus ta'lim tarixi 1920 yillarda vujudga kelib, aynan ko'zi ojiz bolalar ta'limi tarixi esa, 1929 yili fidoiy rahbar Yo'ldosh Oxunboboyevning bevosita ishtirokida maktabdagi ko'zi ojiz ENB bolalarni ajratib o'qitish tashkil qilinganligi hamda ko'zi ojiz bolalar internat-maktabining tarixi shu yillardan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Maktab Parkent ko'chasidagi 6-uyda tashkil qilingan edi. Internat-maktabning yotoqxona va yordamchi xo'jalik xonalari bitta binoda joylashgan edi. Maktabga Nozimova Antonina Aleksandrovna direktor etib tayinlanadi. Y.I.Kozlova, M.B.Pilkunova, A.Bekchurova kabi pedagoglar o'uvchilar o'rtasida katta shuhrat va obro'-e'tibor qozonishgan. Dastlab maktabda 20 nafar o'quvchi tahsil olgan, ularning aksariyati yuqori sinf yoshida bo'lgan. 1929 yilning avgustida maktab yoshidagi o'quvchilar internatga qabul qilingan, shu bilan birga maktab yoshidan o'tgan o'smirlar ishga joylashtirilgach, o'quvchilar soni 30 nafarni tashkil etgan.

Xuddi shunday maktab 1953 yilda Buxoro shahrida, 1954 yilda Xiva shahrida, 1955 yilda Asaka shahrida, 1961

yilning avgust oyida Samarqand viloyati Jomboy tumanida, 1965 yilda Namangan viloyati Kosonsoy shahrida, 1992 yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida, 2000 yilda Farg'ona viloyatida, 2001 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida, 2005 yil 2 sentabrda Jizzax shahrida, 2022 yilda Sirdaryo viloyatida ochilgan. Endilikda ushbu maktablarning nomlari ham, u yerdagi ta'lim va tarbiya ham zamonaviy va o'zgacha.

Jumladan, 2022 yil 18 apreldagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli qaroriga asosan: Ichki ishlar vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligining ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni Ichki ishlar vazirligiga birlashtirish hamda ularni "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari (keying o'rinlarda-"Nurli maskan" maktablari deb nomlash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki, Ichki ishlar vazirligi "Nurli maskan" maktablariga ma'sullarni birlashtirgan holda:

Sifatli ta'lim va tarbiya berishga ularning maishiy sharoitlarini yaxshilashga, shuningdek o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;

O'quvchilarning jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni sog'lom, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalashga hamda dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqirish va jalb etishga;

O'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarini tashkil etishga doimiy ravishda ko'maklashadi[9].

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan kelgusida ko'zi ojizlar ta'limi yuzasidan O'zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar va ularning samaralari, o'qitish jarayonlari, ta'lim oluvchilarning bevosita hayoti, erishgan yutuqlari, bu sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar, jahon miqyosida soha rivoji kabi jihatlarni o'rganishni maqsad qildik.

#### ADABIYOTLAR

1. PQ-209-sonli "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1-bandi, 2022 yil 18 aprel, www.lex.uz
2. Nabiyeva G.A. (2021).Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari. Scientific progress, 1(5).
3. Mamedov K.Q., M.I.Soatov, P.M.Po'latova Oligofreno – pedagogika asoslari. ---T.: O'qituvchi. -1994. 4-7 betlar
4. Dangalov S., Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Toshkent -2010, 15-26 betlar
5. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika.-T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 6-7 betlar
6. N.T.Yaqubova, Maxsus pedagogika va tiflopedagogika , ma'ruzalar matni, T-2002
7. Sulonova D., Tiflopedagogika, ma'ruzalar matni T-2005
8. Astanova Z.T. Valentin Gayui – ko'zi ojizlar ta'lim-tarbiyasining asoschisi//International journal of scientific researchers .2023.№1.-B 166-169 [7].
9. Mamedov K.Q. va b. Maxsus psixologiya. Tiflopsixologiya.I-II qism, Toshkent,2001, III-qism, Toshkent,2002.-32 b
10. Zohiriy P.H.Z.Q. (2021) Inklyuziv ta'limda nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,1(1)



УДК: 9(575.1+491)

**Райхона КАДЫРОВА,**

свободный соискатель кафедры “История и этнология народов центральной Азии” ТГУВ,  
E mail: rayhonaqadirova0905@gmail.com

На основании отзыва Маматовой М.Б – к.и.н.ст.пр.исторического факультета КапГУ

## СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ПАРТНЕРСТВО УЗБЕКИСТАНА С ОРГАНИЗАЦИЕЙ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ (НА ПРИМЕРЕ СОТРУДНИЧЕСТВА С ТУРЦИЕЙ)

Аннотация

В данной статье на основе комплексного изучения научной литературы по теме истории сотрудничества Узбекистана и Турции исследуются экономические, социально-культурные, гуманитарные связи и их развитие. Особое внимание в исследовании уделено укреплению транспортной взаимосвязанности и расширению торговых возможностей. Так же рассмотрены перспективы сотрудничества и стратегическое партнерство.

**Ключевые слова:** партнерство, участие, сотрудничество, связи, стратегия.

## STRATEGIC PARTNERSHIP OF UZBEKISTAN WITH THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES (ON THE EXAMPLE OF COOPERATION WITH TURKEY)

Annotation

This article, based on a comprehensive study of scientific literature on the history of cooperation between Uzbekistan and Turkey, examines economic, socio-cultural, humanitarian ties and their development. Particular attention in the study is paid to strengthening transport connectivity and expanding trade opportunities. The prospects for cooperation and strategic partnership are also discussed.

**Key words:** partnership, participation, cooperation, connections, strategy.

## ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТУРКИЙ ДАВЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ БИЛАН СТРАТЕГИК ШЕРИКЛИГИ (ТУРКИЯ БИЛАН НАМКОРЛИК МИСОЛИДА)

Аннотация

Ўзбекистон ва Туркия о‘рталаридаги ҳамкорлик тарихига oid ilmiy adabiyotlarni har tomonlama o‘rganish asosida tuzilgan ushbu maqolada iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, gumanitar aloqalar va ularning rivojlanishi yoritilgan. Tadqiqotda transport aloqalarini mustahkamlash va savdo imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, hamkorlik va strategik sheriklik istiqbollari muhokama qilinadi.

**Калит со‘злар:** Шериклик, ishtirok etish, hamkorlik, aloqalar, strategiya.

**Введение.** Узбекско-турецкие отношения имеют глубокие исторические корни. Обе страны расположены на важных торговых путях, связывающих Восток и Запад, и имеют богатую культурную и интеллектуальную традицию. На сегодняшний день, Узбекистан и Турция сформировали уникальное в своем роде и перспективное стратегическое партнерство, которое охватывает широкий спектр областей, от экономики и политики до образования и культуры. Это дает возможность для обеих стран увеличить свое влияние на мировой арене, углублять торгово-экономические, инвестиционные связи и обмениваться важными знаниями и навыками.

Две страны на основе общих исторических, языковых и культурно-духовных ценностей, взаимных интересов стремятся к экономическому росту, улучшению образования и науки, сохранению и продвижению своего культурного наследия.

- Boltaev A. Buhoro ulka'sunoslik muzeii tarihi. Bas red. Äbil E. Qazaqstan jäne Türki älemi: qo'gamdyq gylymdar salasynadgy özehti mäseleler. – Nür-Sülтан: Memleket tarihy instituty, 2021. (118-123). – B. 456.
- O'roqov O. Tarixiy yodgorliklar hududining kadastr hujjatlarini tuzish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish. – Samarqand: M.Ulug'bek nomidagi SDAQI, 2012. B-126.

3. <https://lex.uz/docs/4084926>
4. <https://lex.uz/docs/-5230682>
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish borasida olib borgan ishlari yuzasidan hisobotidan. Manba: Vazirlikning 2021-yil uchun hisoboti. – Toshkent: 2022.





UDK:94 (575) (045)

*Sherxon QORAYEV,*  
“TIQXMMI” MTuning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti, f.f.d  
E-mail: [sherxonqorayev@gmail.com](mailto:sherxonqorayev@gmail.com)

Tarix fanlari doktori, prof. Y.Ergasheva taqrizi asosida

## HISTORY AND CREATIVITY OF ASHTARKHANID SULTON SUBHONQULIKHAN'S LITERARY EVENINGS

Annotation

This article talks about the creativity, poetry and works of various sciences of the representative of the Ashtarkhanid dynasty, the ruler of the Bukhara Khanate, Subhonqulikhan.

The effect of poetry evenings and mushaira meetings held in the presence of the ruler with the participation of poets on the development of our classic literature is analyzed.

**Key words:** Nickname, tatabbu', tib, nujum, masnavi.

## ИСТОРИЯ И ТВОРЧЕСТВО ЛИТЕРАТУРНЫХ ВЕЩЕРОВ АШТАРХАНИДСКОГО СУЛТАНА СУБХОНКУЛИХАНА

Аннотация

В данной статье рассказывается о творчестве, поэзии и трудах различных наук представителя династии Аштарханидов, правителя Бухарского ханства Субхонкулихана. Анализируется влияние поэтических вечеров и собраний мушайров, проводимых в присутствии правителя с участием поэтов, на развитие нашей классической литературы.

**Ключевые слова:** Прозвище, татаббу, тиб, нуджум, маснави.

## ASHTARXONIYLAR SULTONI SUBHONQULIXON ADABIY MAJLISLARI TARIXI VA IJODI

Аннотация

Mazkur maqolada ashtarxoniyalar sulolasi vakili, Buxoro xonligi hukmdori Subhonqulixon ijodi, she'riyati va turli xil ilmlar bo'yicha yozgan asarlari haqida so'z yuritiladi. Hukmdor huzurida shoirlar ishtirokida o'tkazilgan she'riyat kechalari va uning mumtoz adabiyotimiz rivojiga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Taxallus, tatabbu', tib ilmi, ilmi nujum, masnaviy.

**Kirish.** Dunyo adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonlar, adabiy muhitlar, saroy adabiyoti vakillari merosini tadqiq etish yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar fan tarixi asosida uning nazariyasi taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitish, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganilmagan saroy adabiyoti hamda hukmdorlar ijodi va sultonlar huzuridagi adabiy majlislar tarixini tadqiq etish, adabiyotni umumadabiy jarayon bilan bog'lab, muayyan tarixiy aspektda xolis o'rganish ustuvor vazifalardan biri. Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida o'zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgani hech kimga sir emas, jumladan, hukmdor-shoirlar va saroy adabiyoti vakillari ijodi keng ko'lamda o'rganildi, ijodkorlarning devonlari nashr etildi. Albatta, o'zbek mumtoz adabiyotining katta qismi saroyda yaratilganidan hamda adabiy yig'inlar milliy adabiyotni rivojlanishida muhim omil bo'lganligidan kelib chiqsak, saroy adabiyoti va adabiy yig'inlarni chuqur va har tomonlama o'rganish payti keldi. Binobarin o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, adabiy yig'inlar hamda mumtoz adabiyot vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hamda “O'zbekiston – 2030” strategiyasidagi belgilangan ta'lim va fan sohasini yanada rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar ijrosini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rta asrlarning muhim manbalaridan biri Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asari ashtarxoniyalar hukmdori Subhonqulixon davri tarixidan hikoya qiladi. Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” tarixiy risolasi zimdan

“Tarixi Muqimxoniy”ning davomidek tuyulsada, u Subhonqulixon va Ubaydulloxon hukmronlik davri haqida so'z yuritadigan risolalardan biridir. Ashtarxoniyalar sulolasida xizmat qilgan Muhammad Amin Buxoriyning “Muhit at-tavorix” asarida ham Subhonqulixon davri batafsil yoritilgan. Mavzumizga doir Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari Subhonqulixon davrining muhim tarixiy manbalaridan sanalanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Subhonqulixon qoshida 1692 yilda Muhammad Bodi as-Samarqandiy tomonidan Buxoro poeziyasining antologiyasi tuzilgan. Bu antologiyada o'sha davr adabiy arboblardan 150 nafari haqida biografik ma'lumotlar berilgan. Saroy shoiri Muhammad Balxiyning 5000 baytli “Subhonqulixonoma” nomli dostoni hamda Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Tarixi Subhonqulixon” kitobi kabi qator asarlar ham shu davrda yozilgan [14, 81].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri poydevori barpo etilayotgan bir paytda dunyo adabiyotshunosligida yuzaga kelgan ilg'or metodologik usullar asosida milliy adabiyotimiz va tariximiz mezonlarining yangicha tamoyillarini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixida saroy adabiyoti va adabiy majlislarni tadqiq etish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqola mavzusini yoritishda tarixiy izchillik, tarixiy – qiyosiy, kontekstual va kompleks tahlil, xronologik tasniflash hamda tavsiflash kabi qator usul va metodlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Buxoro xoni, shoir va olim Subhonqulixonning to'la ismi Saidmuhammad Subhonqulixon ibn Saidnadr Muhammadxonidir [1]. Xoja Samandar Termiziy yozganidek, “karam sohibi, Jamshid mulki vorisi, Farrux shavkatli” Subhonqulixon (1625-1702) she'rlar yozgan.

Subhonqulixon o'z adabiy yig'inarida va turli xil voqeahodisalar munosabati bilan she'rlar aytgan. Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, Xiva xoni Anusha Urganjning taxtdan ag'darilishi va ko'ziga mil tortilishi xabarini eshitgan Subhonqulixon "shodlik labini tabassumga ochib bu baytni o'qidi: (Mazmuni):

Agar mulkka (biror kishi) rahna solsa,  
Boshini olib tashlagan yaxshi.  
Lashkar ishonchsiz bo'lsa tarqatib yuborgan yaxshi.  
Hazrat yuzlarini amirlarga qaratib bu nazmni aytdilar:  
Ey, uning (Xudoning) karami jahon ishini yaratdi,  
Mensiz va sensiz hamma narsani oxiriga yetkazdi [4]".

Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" asarida Subhonqulixonning quyidagi she'ri keltirilgan:

Qaddam zi g'ami hajri tu chun sham' shud, ammo  
Tore zi visoli tu ba changam narasida.  
Dar dida fitad kosh, Nishony, guli ro'yash,  
Aftodani gul garchi ziyon ast ba dida [5].

(Mazmuni: Sening hajring g'amidan qadamim shamdek bo'ldi, lekin, Sen tufayli to'rli o'rmonda to'r yo'q. Nishoniy, gulni yuzingda ko'r, Gullarning tushishi yo'qotishdir.)

Ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixon Nishoniy saroyda o'tkazilgan mushoirlarda o'zi ham o'z she'rlarini aytgan va boshqa shoirlarni ham mushoira qchorlagan[<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ozbekiston-hukmdorlari/subhonqulixon/>]. Xonning atrofida doimo ko'plab shoirlar bo'lgan [9]. Bu davrning madaniy hayotida, ayniqsa adabiyotda ikki oqim mavjud edi. Biri saroy adabiyoti bo'lib, uning tepasida Subhonqulixonning o'zi turar edi. "Maleho" taxallusi bilan mashhur samarqandlik shoir Muhammad Bade' ibn Muhammad Sharifning yozishicha, bu vaqtlarda saroyda 150 ga yaqin shoir bo'lgan [9, 85]. Chunki, Subhonqulixonning adabiyotga ishtiyogi baland edi va o'z atrofiga shoir va olimlarni yig'ib, adabiy majlislar va ilmiy suhbatlar o'tkazishni xush ko'rgan.

Ashtarxoniy davrida Buxoro xonligida adabiyot, she'riyat fors va o'zbek (ko'proq Xivada) tillarida rivojlangan [10, 38]. "Ayn at-tavorix" ("Tarixlar chashmasi") asari muallifi hoji Abdulazim Shar'iy Subhonqulixonning adabiy faoliyatiga yuqori baho berib shunday yozgan edi: "She'rga ta'bi ham baland edi. "Nishoniy" ni taxallus qilgan edilar. Shoir Kamol baytiga tatabbu' aytgan edilar [4]".

Abdulazizxon saroyida xizmat qilgan Turdi Farog'iy Subhonqulixon taxtni egallagach, hukmdor yuritgan siyosatni keskin tanqid ostiga oladi va saroydan ketadi. Umid Bekmuhammadning yozishicha, "U ham xuddi Subhonqulixon kabi shoir bo'lib, Turdi Farog'iy taxallusi bilan ash'orlar bitar, yozganlari o'sha vaqtda odat tusini olgan maishiy, muhabbat mavzusidan ko'ra, ijtimoiy ahamiyat kasb etardi.

Garchi Subhonqulixon shoir va tabib bo'lib, Buxoroda ilmiy – madaniy markazni yuksaltirib, ijodkorlarga, xususan, Turdiga yordam berishga intilsa-da, Turdibek o'z shaxsiyati, ijodi qadrlanishidan ham ko'ra, urug'lar o'rtasidagi nizolarga, aymoqchilikka barham berishni istardi. Turdi saroyda ortiqcha qololmasligini sezib, "Xon eshikinda bir kishi qolmadi, bir sohibi fan, Bori bir necha sukum qaydi mahzi kardan, Kelmas qo'llaridan ish, hamma oshxo'r, garzan", deb she'r bitib, o'z urug'i orasiga ketadi.

[<https://kh-davron.uz/kunubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-saroyga-sigmagan-shoir.html>]"

Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,  
Fitnai avbosh, zulm-u kufru tug'yondur bu mulk.  
Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,  
Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk.  
Dur ahdu tang chashm-u besar-u ya'juj vaz',  
Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk.  
Naqdi jon bersang topilmas istasang bir zarra aysh,

Mehnatu anduhni so'rsang, farovondur bu mulk,  
Joyi islomu musulmonlig', Farog'iy istama,  
Poytaxti kishvari Subhonqulixonondur bu mulk.

Turdi Farog'iy "Subhonqulixon to'g'risida hajviya" nomli asarini 1691 yilda bitgan. Ungacha olti yil yurtni sarson kezib yurgan shoir xalqning ahvolini o'z ko'zi bilan ko'radi. Turdi Farog'iy o'zi yashagan davr hukmdorini tanqid ostiga olib, ma'rifat uchun kurashgan sanoqli shoirlardan biri edi [<https://shosh.uz/ibrat-ila-boq-kuzing-tufroqqa-tolmasdan-burun/>]"

Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, saroy shoirlari, "shirin so'z, nodira suxan shoirlar ul Hazratning qarshisida [4]" mushoira qilib, unga bag'ishlab, qit'alar va qasidalar o'qishgan. Qit'a (Mazmuni):

Oy sening ostonangdan ketguncha, ey janob kayvon,  
Zarrin oftob o'z tanini supurgi qilib ketadi.

Kayvon manzillik podshoh, Iskandar Rumiysan o'zing,

Sening g'ayrat dengizingdan yettinchi osmon bir ko'prikdir,

Xuddi porlab turgan quyosh qarshisida xira yulduzdek,  
Jamshidga nisbat qilsam oliy podshohni ko'raman.

Shoh Abu-l-G'oziy jahon shohi Subhonquli,

Dinu dunyoning ulug' nodir podshohi.

Subhonqulixonning she'riyat kechalarida saroy shoiri mavlono Nayniy Balxiy quyidagi qasidasini o'qigan: (Tarjimasi)

Hazrat Subhonqulixon davlati bilan,  
Turon shohidan taxtni tortib oldi.  
Shohning nomi bilan falak sikka urdi,  
Xatiblar birakay xutba o'qidilar.  
Tashrif qadamini xalq o'rab oldi,  
Shahar shodligidan boshqa zynat topdi...  
Dushmani unga qanday ro'baro' bo'lsin.  
Men aql piridan tarix so'rasam,  
Dedi, bulbuli go'yo maddoh,  
Degil uning podshoh bo'lgani tarixini,  
"Movarounnahr mulkiga yetakchi" (deb) [4].

Subhonqulixon Nishoniy o'z qoshida adabiy majlislar uyushtirishni xush ko'rgan.

Subhonqulixon shuhrat qozonish maqsadida o'z saroyiga ko'pgina ilm ahlini to'plagan. O'zi ham tibbiyot ilmi bilan shug'ullangan. Abdulazim Shar'iyning yozishicha, "Tib ilmida tengi yo'q edilar. Chunonchi "Tibbi Subhoniy" buning qat'iy dalilidir". Muhammad Amin Buxoriy esa bu haqda, - "nihoyatda buyuklik cho'qqisi va ulug'lik asosi bu podshoh tib olimi (bo'lganligidir)[4], degan.

Subhonqulixon tibbiyotga oid qator ilmiy kitoblarni yaratgan. Herman Vamberining yozishicha, "Subhonqulixonning o'zi ilmsevar kishi edi. Hatto katta yoshdalik vaqtida ham mashhur ulamolardan dars olishdan tortinmas edi. Nishoniy taxallusi bilan nihoyat go'zal va teran ma'noli she'rlar yozib, noyob iste'dod egasi ekanligini ko'rsatgan. Dunyoviy ilmlardan u tib ilmiga alohida muhabbat bilan qaragan. Uning tomonidan tuzilgan tib kitobi fikrimizga ochiq dalildir. Bu asarning go'zal qo'lyozma nusxasini men Hirotda sotib olish bilan baxtiyor bo'ldim. Muxtasar so'zboshida olim xon shunday deb yozadi: "Diqqat etmoq kerakkim, qadimgi tib olimlari arab va fors tillarida o'zlaridan keyin asarlar qoldirganlar. Turk tilida yozilgan tib kitobi shu kungacha mening qo'limga tushgani yo'q. Shu bois kaminai kamtarin Sayyid Muhammad Subhonqulixon Sayyid Nadrmuhammadxon o'g'li (Uni Allah rahmat qilsin) bu kitobni yozdim. Har turli kasalliklar uchun anda davolar ko'rsatildi va shoyad ko'p kishilar undan foyda topsalar?!". Binobarin, adabiyotshunos Rustam Jabborov ham bu asar haqida Vamberi fikrlarini to'ldirib, jumladan shunday degan: "Subhonqulixonning tibbiyotga bag'ishlangan yana bir asari - "Xulosatul-hukamo" risolasining yagona nusxasi Vengriya

Fanlar akademiyasi kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma eski o'zbek tilining o'ziga xos nodir namunasi sanaladi. Asar shu tarzda boshlanadi: "Bismilloh, valhamdu vas – sano ul qodirg'a loyiqtururkim, dunyo va mo fiyho zaif va tavononing xilqati va aning qudrati durur. Lahul-mulku va lahul-ham va huva kulli shay'in qodir. Durudi noma'dud ul oxiruz-zamon payg'ambarig'a sazovor tururkim, shari'at nozaninlarini oshkor qilib, shohu gadoni zalolatdin chiqorib, ihdinas – sirotal – mustaqiymg'a ya'ni, islom yo'lig'a hidoyat qildi. Va 'ala olihi va as'hobihi ammo ba'd. Bilgil va ogoh bo'lg'ilkim, har kim o'tkan va bo'lg'an hukamolar hikmat bayonida o'ziga yarasha arabiy va forsiy tili birla kitoblar tasnif qilibturlar. Ammo turkiy tili birla hikmat bayonida kitob nazarimizg'a kirmadi. Aning uchun turkiy tili birla bu niyozmandi dargohi ilohiy, Sayyid Subhonquli Muhammad Bahodurxon ibn Abulg'oziy Sayyid Nadr Muhammad Bahodurxon (navvarallohu ta'olo marqadahu) bu kitobni muvashshah va muzayyan qildim". Ushbu qo'lyozmani mashhur venger olimi va tadqiqotchisi Arminiy Vamberi Xurosonga qilgan sayohati asnosida (yuqorida aytganimizdek) Hirotdan sotib olgan va o'zining 1867 yilda Leypsigda bosilgan "Chig'atoy tili saboqlari" kitobiga kiritgan. O'z xalqining sihat – salomatligi uchun kuyib – pishgan bu hukmdor timsoli haqiqatda go'zal namuna! [2]"

Subhonqulixon tibbiyotga oid "Tibbi Subhoniy"dan boshqa (yuqorida aytganimizdek) fors tilida "Ihyo ut tibbi Subhoniy" ("Subhonqulining tabobatni jonlantiruvchi kitobi") kitobini ham yozgan. Bu asarning qo'lyozma nusxasi (Inv. №2101, 301 varaq) Sharqshunoslik institutida saqlanadi [4]. Asar sakkiz bobdan iborat bo'lib, unda turli dorilar haqida ma'lumot berilgan, xon o'z asarini yozishda "Shifo ul-alil"dan keng foydalangan. "Ihyo at-tib Subhoniy" kasalliklarni bayon qilishga, ularni topish va tashxis qo'yishga, davolash va hakovzolarga bag'ishlangan. U kirish, muqaddima va sakkiz bobdan iborat. Har qaysi bob 4 faslga bo'linadi. Subhonquli o'z asarini yozishda zamonasining arab va fors tillarida yozilgan ko'pgina e'tiborli kitoblarini o'qidi va o'rgandi, unga o'zining shaxsiy tajribalarini qo'shdi. Subhonquli bu asarida inson badanining "boshdan tovongacha" bo'lgan barcha a'zolarining kasalliklarida qo'llanadigan sodda va murakkab dorilarni batafsil sharhlaydi. Muqaddima: "Tabobat chegarasini bayoni haqida" deb atalgan bo'lib, 10 qismdan iborat. Bu qismlarda muallif davolovchi tabibning vazifalari, inson sog'lig'i uchun zarur bo'lgan "Oltita sharoitlar", to'rt unsur va inson tabiati haqida gapiradi. Xususan, inson salomatligiga iqlimning, kiyim, ovqat va yoshning salbiy va ijobiy ta'sirlarini ta'kidlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Irisova A., Nosirov A., Nizomiddinov I. O'rta Osiyolik qirg'olim. T.: Fan, 1961.-B.92.
2. Vamberi Arminiy. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinchi jild. T.: "Info Capital Group", 2019. –B. 159.
3. Mir Muhammad Amin-i Buxari. Ubaydulla-name. Per s tadj, predisl., prim. I ukaz A.A.Semenova.-Toshkent: Izd-vo Akad. Nauk UzSSR, 1957.-S.30
4. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. Tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Yusupova va U.Hamroev.T.: Fan, 2020.-B.92-93.
5. Ayniy S. Namunai adabiyoti tojik. Dushanbe: Adib, 2010. – B.117.
6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ozbekiston-hukmdorlari/subhonqulixon/>
7. Sultonov F., Bozorboev F. O'zbekiston hukmdorlar. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN, 2007.-B.49.
8. Abduraxman – i Tali. Istoriya Abulfeyz-xana. Pervod s tadjikskogo, predisl., primechaniya i ukazatel professora A. Semenova. T.: Izdatelstvo AN Uzbekskoy SSR, 1959.-B.170.
9. Zamonov A., Subhonov F. Buxoro xonligining ashtarxoni hukmdorlari. T.: Bayoz, 2021.-B.85.
10. O'zbekiston xalqlari tarixi. II-jild. T.: Fan, 1991. – B.38.
11. Fitrat A. Tanlangan asar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma'naviyat, 2000.-B.64.
12. <https://kh-davron.uz/kunubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-saroyga-sigmagan-shoir.html>
13. <https://shosh.uz/ibrat-ila-boq-kuzing-tufroqqa-tolmasdan-burun/>
14. Barakaev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi (Eng qadimgi davrlardan ulug' oktabr inqilobigacha). T.: O'qituvchi, 1991.-B.81.
15. <https://telegra.ph/%DO%8EZBEKISTONNING-ILK-%D2%B2UKMDORI-SUB%D2%B2ON%D2%9AULIHO N-12-30>.
16. "Sharq tabobati". Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, maqolalar va sharhlar muallifi. T.: Meros, 1994.-B.95.
17. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi. Toshkent, 2009.-B.185.
18. Irisova A., Nosirov A., Nizomiddinov I. O'rta Osiyolik qirg'olim. T.: Fan, 1961.-B.93.

I bob to'rt fasldan iborat. Birinchi faslda sodda dorilarning ta'rif va tavsifi alifbo tartibida berilgan. Shuningdek, dori nomlari, iste'mol qilish miqdorlari va har xil mamlakatlarda iqlim sharoitlariga qarab iste'mol qilinishi aytilgan. Bir sodda dori qaysi murakkab dori tarkibiga kirishi va bu haqda boshqa tibbiy asarlardan olingan ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi fasl dorivor o'simliklarni yig'ib olishga bag'ishlangan hamda ovqat va ichimliklar mizojga qarab taqsimlangan. Uchinchi fasl – o'lchov birliklari haqida. To'rtinchisi - murakkab dorilar tushunchasini bayon qilish va ularning tarkibini o'rgatish haqida. V – VIII fasllar har xil kasalliklarga qarshi ishlatiladigan murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bizgacha yetib kelgan bu asarning bir nusxasini 1797 yili kotib O'zbek Xo'ja Mir Haydariy 135 varaqda ko'chirgan (AR № 122) [16].

Subhonqulixon folga oid "Ramali Subhoniy" (O'zFA ShI, inv №4260) nomli asar ham yozgan. Uning farmoniga binoan "Fatovoiy Subhoniy" nomli fatvolar to'plami ham ishlab chiqilgan[18]". Ilmi nujum (astronomiya)ga oid "Lub-lavoih al – qamar fi-l- ixtiyorat" ("Oy nurining ixtiyorat uchun mohiyati") nomli risola ham xon qalamiga mansub [9, 75]. U bir necha lavhalar, ikki maqola va xotimadan tashkil topgan. 1855 yilda Xiva xoni Sayyid Muhammadxonning vaziri Muhammad Ya'qubga atab, Muhammad Yusuf Rojiiy o'zbek tiliga tarjima qilgan va o'zi kitobat qilgan. (Qarang: O'RSHI – 1, №1205) [17].

Xon Jaloliddin Rumiyning masnaviyalariga fors tilida "Risola dar ma'niyi bayti "Masnaviy"" nomli sharh yozgan. Mazkur sharh Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda [9].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Muxtasar aytganda, Subhonqulixon ijodi va adabiy majlisilari o'z davri ilmu fani va mumtoz adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan.

XVII-XVIII asr ashtarxoniylar davri adabiy majlisilari musulmon Sharqi mamlakatlari, xususan temuriylar va shayboniylar zamonida shakllangan an'analarni o'zida mujassam etganiga va bu an'analardan yanada rivojlantirilganiga, adabiyot va adabiy muhit, adabiy jarayonlarni taraqqiy etishiga xizmat qilgan, deyish mumkin. O'zbek adabiyoti tarixining tarkibiy qismi hisoblangan bunday yig'inlar keyingi davrlar qalam ahli uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan.

Albatta, Subhonqulixon davri adabiy muhitini o'rganish va tadqiq etish o'zbek adabiyoti tarixini yangi - yangi ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.



*Sarvinoz OMONOVA,*  
*Qarshi davlat universiteti t.f.f.d.(Phd)*  
*E-mail: s\_omonova@mail.ru*

*Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori G.Mo‘minova taqrizi asosida*

## XX ASRNING 50 – 80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR SPORTI BO‘YICHA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI

Annotatsiya

Ko‘p yillik sport mashg‘ulotlari jarayonining davomiyligi va erishilgan yutuqlar ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida mahoratning turli jihatlarini shakllantirish qonuniyatlari, asosiy funksional tizimlarda moslashish mexanizmlarini shakllantirish, sportchilarning individual va jinsiy xususiyatlari, shuningdek, vositalar va usullarning tarkibini hisobga olgan holda mashg‘ulotning mazmuni, eng asosiysi esa o‘z kasbining egasi sportchi kadrlar yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonda xotin – qizlar sporti bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayoniga bir necha yillar oldin ham alohida e‘tibor berilgan. Xususan, ushbu maqolada XX asrning 50 – 80 yillarida O‘zbekistonda xotin – qizlar sporti bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayoni yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Islohotlar, sport, sportchilar, xotin – qizlar sporti, sport musobaqalari, mahorat, qobiliyat, kadrlar siyosati.

## ПРОЦЕСС ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ПО ЖЕНСКОМУ СПОРТУ В УЗБЕКИСТАНЕ В 50 – 80 ГОДЫ XX ВЕКА

Аннотация

Длительность процесса многолетней спортивной подготовки и достигнутые успехи зависят от многих факторов, среди которых ведущее место занимают закономерности формирования различных аспектов мастерства, формирования механизмов адаптации в основных функциональных системах, индивидуальных и половых особенностей спортсменов, а также содержания обучения с учетом состава средств и методов, а главное – спортивных кадров, являющихся носителями своей профессии. Процессу подготовки кадров по женскому спорту в Узбекистане уделялось особое внимание еще несколько лет назад. В частности, в данной статье освещен процесс подготовки кадров по женскому спорту в Узбекистане в 50-80 годы XX века.

**Ключевые слова:** Реформы, спорт, спортсмены, женский спорт, спортивные соревнования, мастерство, способности, кадровая политика.

## THE PROCESS OF TRAINING WOMEN'S SPORTS PERSONNEL IN UZBEKISTAN IN THE 50 – 80 YEARS OF THE XX CENTURY

Annotation

The duration of the multi-year sports training process and the achievements depend on many factors, among which the laws of the formation of various aspects of skill, the formation of adaptation mechanisms in basic functional systems, the content of training, taking into account the individual and sexual characteristics of athletes, as well as the composition of tools and methods, the main Special attention was paid to the process of training women's sports personnel in Uzbekistan even a few years ago. In particular, this article covers the process of training women's sports personnel in Uzbekistan in the 50 – 80s of the 20th century.

**Key words:** Reforms, sports, athletes, women's sports, sports competitions, skills, abilities, personnel policy.

**Kirish.** O‘zbekistonning sport sohasidagi yutuqlari yildan yilga o‘tib bormoqda, hattoki O‘rta Osiyo mamlakatlari orasida sport sohasida eng yaxshi davlati deb e‘tirof etilmoqda. Buni O‘zbekiston vakillarining eng nufuzli xalqaro turnirlar, jahon chempionatlari, Olimpiya va Osiyo o‘yinlaridagi g‘alabalari va o‘zbek sportchilarining yuksak salohiyatini namoyish etuvchi ko‘plab oltin, kumush va bronza medallari tasdiqlaydi.

Turli musobaqalarning borishini kuzatar ekanmiz, respublikamizda iqtidorli, iqtidorli sportchilar yil sayin ko‘payayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Ular nafaqat poytaxt, balki mamlakatning eng chekka mintaqalaridan ham mavjud. Hozirgi xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan boshqa davlatlardan kelgan murabbiylar o‘zbek sportchilarining mahorati yildan yilga ortib borayotganini tasdiqlamoqda.

Ammo eng muhimi, dunyoning boshqa ko‘plab mamlakatlaridan farqli o‘laroq, bu sohada rivojlanishning asosi O‘zbekiston rahbariyatining ayollar sportini rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan ulkan qo‘llab-quvvatlashiga asoslanadi. Davlatimizning ayollar salomatligiga bo‘lgan g‘amxo‘rligining ajralmas qismi ularni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda xotin-qizlar o‘rtasida sportni ommalashtirish va rivojlantirishda oliy ta‘lim muassasalari hal qiluvchi bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida xotin-qiz murabbiylarni tayyorlash, talaba qizlar uchun turli sport to‘garaklarini tashkil etish va ularni musobaqalarga tayyorlash bo‘yicha doimiy ravishda belgilangan reja asosida chora-tadbirlar olib borildi.

O‘zbekistonda sport sohasi kadrlarini tayyorlash jarayoni o‘tgan asrning 30 – yillaridan boshlanib, sovet davrida ushbu masalaga muayyan darajada e‘tibor berildi. Bu davrda Toshkent shahar xalq ta‘limi bo‘limi qoshida bolalar sport maktabi tashkil etilib, unda gimnastika bo‘limi tashkil etildi. Shuningdek, 1935 yilda jismoniy madaniyat texnikumi ham ochildi[1].

1946-1960 yillar respublika basketbol o‘yining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. O‘zbekiston Kompartiyasining 1949 yil martda bo‘lib o‘tgan X syezda qarorida bunday deyilgan edi: “Yoshlarni jismoniy tarbiyalash ishini yanada rivojlantirishga katta e‘tibor berilishi kerak. Partiya, sovet kasaba uyushmasi va komsomol tashkilotlari ularni fizikultura tashkilotlarining ishini yaxshilashlari, ularni



moddiy-texnika bazasini mustahkamlashlari, keng xalq ommasiga fizkultura harakatiga jalb qilishlari lozim”, - deb yozilgan.

O'zbekiston IX spartakiadasi 5412 fizkultura kollektivlari ishtirokida 188 shahar va rayonda hamda 10 oblastda spartakiada musobaqalari bo'lib o'tdi. Bu musobaqalarda 500 ming yigit va qizlar qatnashdi. O'zbekiston IX spartakiadasiga tayyorgarlik davrida yangidan 100 fizkultura kollektivlari tashkil etildi. Sportchilarning soni esa 40 ming kishiga ko'paydi. O'zbekiston sportchilaridan 11 sportchi sport masteri normasini bajardi, 105 kishi birinchi, 780 kishi 3839 kishi uchunchi razryadli bo'ldilar. O'zbekiston IX spartakiadasi finalida 9 oblastdan, Qoraqalpog'iston ASSR shahridan 1700 sportchi va 360 sudya qatnashadi.

1954 yilda bo'lgan O'zbekiston VIII spartakiadasiga 1515 sportchi qatnashgan edi. O'shanda birinchi o'rinni Toshkent shahri, ikkinchi o'rinni Farg'ona oblasti, uchinchi o'rinni Samarqand oblasti olgan edi.

Respublikada bitta xizmat ko'rsatgan sport masteri, 54 sport masteri, Butunittifoq kategoriyasidagi 15 sudya bor edi. Shu yil Moskvada bo'ladigan SSSR xalqlari spartakiadasiga O'zbekiston sportchilari kollektividan birinchi razryadli va Sport masterlaridan 400 kishi qatnashadi[2].

250 mingga yaqin pedagog, trener, instruktor va metodistlar turli yoshdagi kishilarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga jalb etishda yaqindan yordam berdilar. 23 ga yaqin jismoniy tarbiya oliy o'quv yurti, pedagogika institutlaridagi 76 ta jismoniy tarbiya fakulteti, o'ttizga yaqin jismoniy tarbiya texnikumlari, yigirmaga yaqin trenerlar maktablari mutaxassis tayyorladi. Bu raqamlar har yili o'zgaryapti, chunki jismoniy tarbiya xodimlariga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Zero, Kommunistik partiya fizkultura harakatiga haqiqiy umumxalq xarakteri baxsh etish vazifasini qo'lydi va bu vazifa muvaffaqiyatli amalga oshdi[3].

**Tahlil va natijalar.** 1955-1956 yillarda SSR xalqlari birinchi spartakiadasiga tayyorgarlik munosabati bilan jismoniy madaniyat sport taraqqiyotiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston KMP va Ministrlar Sovetining qarori bilan respublika spartakiadasini o'tkazish va SSR xalqlar birinchi spartakiadasiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tashkiliy komitet tashkil qilindi, fizkultura ommaviylikini rivojlantirish va O'zbekiston sportchilarining mahoratini oshirish tadbirlari belgilab berildi. O'zbekiston Kompartiyasi XIII s'yezdi ham (1956 yil yanvar) yana shu vazifaga e'tibor berdi. "Mehnatkashlarning jismoniy tarbiyalash ancha yaxshilansin, 1956 yilgi SSR xalqlari spartakiadasiga respublika sportchilarining yuksak darajada tayyorgarlik ko'rishini ta'minlansin", deb ko'rsatilgan edi s'yezd qarorida.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovet birgina 1953 yilning o'zida ikki marta (30 martda va 31 avgustda) fizkultura va sport ishlarini yaxshilashga qaratilgan qaror qabul qildi. Bu qarorlarda kadrlarni qayta tayyorlash, sport asbob-anjomlarini ishlab chiqarish, sport inshootlari qurish va ularni jihozlash kabi qator masalalar aniqlashtirib berilgan edi. "O'zbekiston fizkulturchisi" va "Fizkulturmik O'zbekiston" gazetalari uzoq tanaffusdan keyin 1953 yildan boshlab yana chiqa boshladi. 1954 yilda mamlakatda eng yirik "Paxtakor" stadionini qurishga kirishildi va 1956 yili SSR xalqlari birinchi spartakiadasi ochilishi arafasida foydalanishga topshirildi. 1945 yilda respublika spartakiadalarini o'tkazish an'anasi yana tiklandi, 1948 yildan boshlab bu spartakiadalar muntazam o'tkaziladigan bo'lib qoldi[4].

"Aholini jismoniy tarbiyalash sohasida, - deb yozilganda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining hisobot dokladi rezomiyasida, mehnatkashlarni, shuningdek o'quvchi yoshlarni fizkultura va sport ishiga kengroq jalb qilish vazifasi hal etilsin, sport tashkilotlarining moddiy bazasi mustahkamlansin, jismoniy tarbiya bo'yicha kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kuchaytirilsin".

Jismoniy tarbiya harakatini yuksaltirish manfaatlari yosh avlodni jismoniy tarbiyalashni ilmiy va metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish zaruriyati O'zbekiston sportchilarining mahoratini o'stirishni ta'minlash yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'ydi. Bu vazifani bitta Jismoniy tarbiya texnikumi imkoniyati bilan hal qilib bo'lmas edi.

1951 yilda Samarqand jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurti ochildi. U hozir ham samarali ishlab turibdi. Ayni paytda esa oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talab yoki ehtiyoj qoniqarsiz ahvolda edi. 1949 yilda respublikada oliy fizkultura ma'lumotiga ega bo'lgan 96 mutaxassis bor edi, xolos. Respublika hukumatining maxsus qarori bilan 1949 yilda Toshkent davlat pedagogika institutida jismoniy tarbiya bo'limi ochildi. U 1952 yilda mustaqil fakultetga aylantirildi. Shuningdek, 1954 yilda Farg'ona pedagogika institutida, 1956 yilda Nukus pedagogika institutida ham xuddi shunday fakultetlar ochildi. Hozirgi kunda Nukus davlat universiteti o'lkamizda kadrlar tayyorlashda xizmati alohida tahsinga sazovor. Ayniqsa, 1955 yilda Respublikada O'zbekiston jismoniy tarbiya davlat institutining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu oliy yurti jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha yuqori malakali o'qituvchilar va trenerlar tayyorlashning makoni bo'lib qoldi.

Xuddi shunday jismoniy tarbiya fakultetlari 1958 yili Andijon, keyinchalik Buxoro (1964), Qarshi (1966), Termiz (1966), Namangan (1966), Qo'qon (1966), Samarqand (1967), Jizzax (1976), Sirdaryo (1979), Urganch (1990), Angren pedagogika institutlarida tashkil etildi. O'zbekiston yildan - yilga fizkultura jamoalari soni ortib, fizkultura xarakati keng quloq yoyaverdi. Sobiq SSSR Xalqlarining 1-spartakiadasiga tayyorgarlik ko'rish respublikada fizkultura harakatining kengayishiga zo'r turki bo'ldi[5].

1965 yil sport yetti yilligining ham yakunlovchisi bo'ldi. O'zbekiston fizkultura tashkilotlari partiya tashkilotlarining kundalik rahbarligida, kasaba uyushmalari va komsomolning faol ishtirokida o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarilganliklari to'g'risida Vatanga raport berdilar. Yetti yillik mobaynida fizkulturchilar soni 1 milliondan oshdi va korxonalar, qurishlar, kolxozlar, savxozlar va o'quv yurtlarida 7670 fizkultura jamoaga birlashgan 1 million 650 mingdan ziyod kishini tashkil qildi. Kasaba uyushmalarining sport jamiyatlarida shug'ullanuvchilar soni 172 ming kishiga, "Paxtakor" qishloq jamiyatida esa 183 ming kishiga ko'paydi. Fizkultura va sport bilan shug'ullanuvchi xotin - qizlar 500 ming ko'p demakdir. Yetti yillik mobaynida respublikada 1624,1 ming nishondor, 747 ming razryadchi sportchi tayyorlashdi.

**Muhokama.** Ommaviy fizkultura ishi aholi orasida keng rivojlandi, turistik sayrlar, salomatlik guruhlari, baliqchilik va ovchilik sport turlarida qatnashuvchi yoshlar soni ancha oshdi. 825 mingdan ziyod ishchi, xizmatchi va o'quvchi yoshlar ish va o'qish joylarida ishlab chiqarish gigiena gimnastikasiga jalb qilingan. Shu yillar mobaynida sport klublari, o'smirlar va yoshlar sport maktablari, qishloq yoshlari, sport maktabi, respublika maktab- internati tashkil qilindi va hozir ham bu maktab samarali ishlab turibdi. 78 ta bolalar sport maktabida 25,3 ming bola shug'ullanmoqda. Holbuki 1959 yili 24 maktabda 7,3 ming bola shug'ullangan edi.

Respublika sportchilarning mahoratini oshirish bo'yicha katta ishlar qilindi. 1959-1965 yillarda 12550 birinchi razryadli sportchi va 748 sport ustasi tayyorlandi. O'zbekiston sportchilari 3 ta jahon, 33 ta butunittifoq va 157 ta respublika rekordlarini o'rnatdilar. Mamlakat, yevropa, jahon va olimpiada musobaqalarida 46 oltin, 93 kumush va bronza medali olishga muvoffaq bo'ldilar. Malakali sportchilarni yetishtirganliklari uchun 77 trenerga "SSSRda xizmat ko'rsatgan trener" va "O'zbekitonda xizmat ko'rsatgan

trener" unvonlari berildi. Fizkultura va sport ishlariga rahbarlik qilishda jamoatchilik usuli keng qo'llana boshladi[6].

Sportchilar boshqa kasb egalaridan nimasi bilan farqlanadi? Albatta, maqsad sari intilishlari, tinim bilmas mehnatlari, iroda va yana irodalari bilan. Mamatkulova Tatyana Abdurahmonovnani ham ana shu kuch sport sari yetakladi. Va u o'z oldiga qo'ygan barcha niyatlariga yetishdi. 1963 yil Toshkent shaxrida tug'ilgan Tatyana M.Ulug'bek nomidagi Farg'ona Davlat Pedagogika institutini jismoniy tarbiya o'qituvchisi mutaxassisligi bilan 1986 yil tamomladi. Mehnat faoliyatini esa 1980 yil murabbiy-uslubchi, DOSAAF respublika sport- texnika klubida murabbiy sifatida boshladi.

1982-1985 yillar «Mehnat» ko'ngilli sport jamiyatining Olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar sport maktabida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha murabbiy-o'qituvchilik qildi. Shu orada T.Mamatkulova baydarkada eshkak eshish bo'yicha sport ustasi nomzodligini qo'lga kiritadi. 1987-1993 yillar O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport jamiyatining Markaziy Kengashi eshkak eshishga

ixtisoslashtirilgan Olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar sport maktabida murabbiy-o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bordi[7].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xotin – qizlar sporti yurtimiz tarixida alohida e'tibor berilgan muhim sohalardan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, sportchi ayollarning mahoratini yanada oshirish va kadrlar tayyorlashga bo'layotgan e'tibor diqqatga sazovor.

O'zbekiston davlatining chora-tadbirlari tufayli mustaqillik yillarida ayollar va bolalar bilan kasallanish sezilarli darajada kamaydi, onalar va bolalar o'limi uch baravar kamaydi, ayollarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 67 yoshdan 75 yoshgacha oshdi[8]. Umuman olganda, sport va jismoniy tarbiya yosh ayollar avlodining to'liq yangilangan ta'lim va tarbiya tizimining ajralmas va muhim qismiga aylandi. Umuman olganda, sport an'analari, kasbiy bilim va ko'nikmalar mustahkamlanishi asosida ta'lim muassasalarining ko'paytirilishi, sport sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yurtimizda ushbu sohani keng rivojlanishiga zamin yaratgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистонда гимнастиканинг ривожланиш тарихи. – Т., 2002. – Б.13-15.
2. 1956 й 10.06 №135 Қизил Ўзбекистон газетаси
3. Балакин С, Назарянц. Ўзбекистонда спорт– Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1978.й. 4 бет
4. Хўжаев Ф., Ходжаева С. Жисмоний тарбия тарихи. – Т.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2021. 190 бет
5. Хўжаев Ф., Ходжаева С. Жисмоний тарбия тарихи. – Т.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2021. 190 бет
6. Хўжаев Ф., Ходжаева С. Жисмоний тарбия тарихи. – Т.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2021. 211-бет.
7. Каримова М., Айол яратган дунё (Ўзбекистоннинг фидойий айоллари), 1 китоб. – Т.: “Шарк” нашриёт Матба акциадорлик компанияси бош тахририяти, 2005. 293-бет
8. Ахмедова, Х. О. Развитие женского спорта в Узбекистане // Молодой ученый. - 2015. - № 1 (81). - С. 434-437.



УДК 327(575.1+493).000.93

**Шахноза ТУРСУНОВА,**

*старший преподаватель Ташкентского института текстильной и легкой промышленности*

*E-mail: shakhnoza.tursunova.2020@mail.ru*

*На основании отзыва Маматовой М.Б – к.и.н.ст.пр.исторического факультета КаРГУ*

## ФОРМИРОВАНИЕ ЕВРОПЕЙСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

Автор рассматривает развитие приоритетных направлений международного сотрудничества Нового Узбекистана с ключевыми странами ЕС на примере стран Бенилюкс.

**Ключевые слова:** Международный договор, многосторонние отношения, Европейский Союз, Страны Бенилюкс, сотрудничество, интеграция, устойчивое развитие, безопасность.

## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA YEVIROPA YO‘NALISHINING SHAKLLANISHI

Annatsiya

Maqolada muallif Yangi O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqining yetakchi Benilyuks davlatlari o‘rtasida xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro shartnoma, serqirra munosabatlar, Yevropa Ittifoqi, Benilyuks davlatlari, hamkorlik, integratsiya, barqaror rivojlanish, xavfsizlik.

## FORMATION OF THE EUROPEAN DIRECTION OF THE FOREIGN POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

The author considers the development of priority areas of international cooperation of the Republic of Uzbekistan with key countries of the European Union using the example of the Benelux countries.

**Key words:** International treaty, multilateral relations, European Union, Benelux countries, cooperation, integration, sustainable development, security.

**Введение и актуальность исследования.** Динамично развиваясь Республика Узбекистан приняла новую концепцию – Стратегию развития Нового Узбекистана, одним из важных направлений реализации которой является укрепление международных отношений Республики Узбекистан с иностранными государствами, в том числе со странами Европейского Союза (ЕС)[1].

